

5 sinf Matematika 2-BSB topshiriqlari va mezonlari

Bob	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Ajratilgan ball
II. Sonlar ustida to'rt amal	Qavsli ifodalarda amallarni bajarish tartibi	To'rt amalni o'z ichiga olgan qavs ishtirok etgan ifodalarda amallarni bajara oladi	Ifodalarning qiymatini toping. 1) $(780 - 140) \div 8 + (15 - 10) \times 3$ 2) $(900 - 300) \div 3 - (246 - 197) \times 4$	2 ball
	Matnli masalalar	Ko'p bosqichli matnli masalalarni yecha oladi	- Bitta bo'sh quti va bir nechta apelsinning umumiy massasi 25 kg. - Bitta bo'sh quti va bir nechta olmaning umumiy massasi esa 11 kg. - Apelsinlarning massasi olmalarning massasidan 3 marta og'ir. Berilgan ma'lumotlardan foydalanib apelsinlarning massasini toping.	4 ball
		Mulohazaga doir ko'p bosqichli matnli masalalarni yecha oladi	Jamshidda ukasi Sanjarga qaraganda 10000 so'm ko'p pul bor edi. Onasi Jamshidga 3000 so'm va Sanjarga 5000 so'm berganidan so'ng Jamshidning puli Sanjarnikiga qaraganda 2 marta ko'p bo'ldi. Dastlab Sanjarda qancha pul bo'lgan?	4 ball

III. Oddiy kasrlar	Sonlarni bo'lishni kasr ko'rinishida ifodalash	Natural sonni natural songa bo'ladi va natijani oddiy va aralash kasr ko'rinishida ifodalay oladi	1) 6 ta shokolad 8 nafar bolaga teng taqsimlansa, har bir bola shokoladning qancha qismini oladi? Javobni oddiy kasr ko'rinishida ifodalang. 2) 5 ta nonni 4 nafar bolaga teng bo'lib bering. Har bir bola nonning qanday qismini oladi? Javobni aralash son ko'rinishida ifodalang.	2 ball
	Aralash sonlarni qo'shish va ayirish	Aralash sonlarni qo'shish va ayirish amallarini bajara oladi	Hisoblang: 1) $7 - 4\frac{5}{6}$; 2) $8\frac{2}{9} - 3\frac{4}{5}$; 3) $6\frac{7}{10} - 2\frac{1}{4}$.	3 ball
Jami				15 ball